

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Bo'ltakova Dilrabo Mustaqulovna

Jizzax viloyati G'allaorol tumani 42-maktab psixologi

Annotasiya: Ushbu maqolada psixologik xizmatni maktablarda tashkil qilishning maqsadi o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashiga ko'maklashish, turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim tarbiya jarayonidagi o'ziga xos psixologik nuqsonlarini aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'gan og'ishishlarning oldini olish choralari kabilar izoxlangan.

Kalit so'z: Psixologik xizmat, psixologik diagnostika, psixologik korreksiya, analiz, liderlik qobiliyati, qiziqishlari, yosh davrlarining o'ziga hos xususiyatlari.

Ma'lumki, shaxsning sotsializatsiyasi asosan maktab yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham maktab oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bolaning kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratish, uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiyaning eng maqbo'l shakllarini joriy etishdir. Lekin hammaga ma'lumki, hozirgi sharoitda maktab oldida ko'plab muammolar, hal qilinmagan masalalar mavjudki, ular barchasi maktabga har taraflama yordamni taqozo etmoqda.

Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'rsatmalariga asosan yoshlarning layoqatlarini ilk yoshligidan aniqlash, ular iqtidorini har taraflama o'tirish vazifalari o'quvchiga individual yondashuvning zarurligini, o'qshning differensial bolishini talab qilmoqda, shunga yarasha maktab va jamoatchilik oldiga qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Maktablarda psixologik xizmatni tashkil qilish orqali o'quvchilarning qiziqishlari va ga qarab kasb-hunar tanlashda tog'ri yo'l ko'rsatishdir. Testlar vositasida bilimlarni tekshirish, oliy o'quv yurtlariga va ta'limning barcha tarmoqlariga ham test sinovlari orqali qabulning amalga oshirilishi psixologik xizmatning tezroq yo'lga qo'yilishini talab qilmoqda. Ijtimoiy psixologiya ham davrimizning maktab oldiga qo'yayotgan talablari,

uning hozirgi kunlarda boshdan kechirayotgan qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'ymoqda.

Maktabga borgan ijtimoiy- psixolog nima ishlarni qilishi mumkin? U:

1. Maktabda tashqil etilgan psixologiya xizmati avvalo psixologdan usha maktab sharoitini har tomonlama, to'liq o'rganib chiqishni, har bir yosh xususiyatlariga qarab, individual va guruhda ishlash uslublarini aniqlashi lozim.

2. Maktab psixologi bolalar o'rtasida uchrab turadigan psixik rivojlanishdan chekinish hollarini to'liq o'rganishi unga sabab bolgan ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni analiz qilishi lozim.

3. Maktab psixologida turli yoshli bolalar bo'yicha ularning qobiliyatlari, va kasbga qiziqishiga doir aniq ilmiy analizlar, test natijalari asosida tuzilgan malumotlar blanki bolishi kerak. Bu malumotlarga asoslanib, psixolog bolalarga alohida-alohida yondoshish, ayrimlariga qo'shimcha darslar tashkil etish, maktab, oila xamkorligida bolalardagi qobiliyatlarni o'stirish bilan bog'liq aniq ko'rsatmalar ishlab chikmog'i lozim.

4. Maktab psixologi umuman maktabdagi alohida sinflardagi ruhiy holatlarni o'zaro munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan psixologik muxitni aniqlashi va rasmiy va norasmiy liderlar o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganib, maktab mamuriyatiga tarbiyaviy ishlar boyicha direktor o'rinbosariga kerakli yo'l-yo'riqlarni berib turishi kerak.

5. Bundan tashqari, maktab psixologi turli mojarolar, ziddiyatlar tartibbuzarliklarning oldini olish, ularning tabiatini o'rganish chora-tadbirlari bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etishi kerak. Bunday konsultatsiyalar alohida ota-onalar va pedagoglar jamoasi uchun tashkil etiladi. Amaliy psixolog faoliyatining yana bir tomoni turli masalalar bo'yicha o'qituvchilar jamoasiga konsultatsiya va yordamlar berishdir.

Shuningdek, umumta'lim maktablarida psixologik xizmatning o'ziga xos tarkibiy qismi sifatida diagnostika ishlari majmuasi o'quvchilarni maktabda o'qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim va tarbiyasidagi nuqsonlarning sababini aniqlashga mo'ljallangandir. Odatda, diagnostika ishlari guruh yoki yakka tartibda (individual tarzda) o'tkaziladi.

Yosh davr taraqqiyotining muayyan me'zonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida psixolog bolalar, o'quvchilarni, psixologik tekshiruvlardan o'tkazadi, kamolot darajalarini belgilaydi;

O'rta umumta'lim va yangi tipdagi maxsus maktablar, o'quvchilarini mazkur muhitga moslashish xususiyatlarini o'rganish.

Bolalarni birinchi bosqich ta'limiga qabul qilishda qatnashish, ularni maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash;

O'quvchilarni ta'limning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tkazishning kompleks psixologik-pedagogik tadqiqotida bevosita qatnashish;

Voyaga yetmagan o'smirlarning o'z tengqurlari bilan muomalasi xususiyatini tekshirish, ularning etnoqiyofasi va etnomadaniyati xususiyatini inobatga olgan holda psixofiziologik metodikalarni muayyan sharoitga moslashtirish va tadqiqot ishlarini olib borish;

Deviant (qonunbuzarlik) ijtimoiy xulq — atvor sabablari va ularning shakllarini aniqlash;

Giyohvandlik, taksikomanlik, alkogolizm, o'g'irlik, daydilikning ijtimoiy psixologik ildizlarini tekshirish, ularning omillarini tahlil qilish;

An'anaviy ta'lim-tarbiya metodlarining yutug'ii hamda kamchiliklarini tadqiqot qilish, innovastion, faol uslublar samaradorligini amaliyotda sinab ko'rish, o'quvchilarning ularga nisbatan munosabatini aniqlash va ana shularga asosan o'qitishni individuallashtirish, tabaqalashtirish bo'yicha o'quv-uslubiy ko'rsatmalar tavsiyalar ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Psixologik korreksiya- psixologik xizmatning mazkur yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqozo qiladi.

Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihatida esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o'tkaziladi va butun ma'suliyat uning zimmasiga tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – T.2005.

2. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. – Buxoro, 2007.
3. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2006. - 162 b.
4. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayev a, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. T:, 2018yil, 292 bet.